

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va Sport Ishlar Vazirligi

O'zbekiston Davlat San'at va Madaniyat Instituti

KURS ISHI

Mavzu: Intervallar.

Bajardi: "Xalq ijodiyoti" bo'limi

"VJR" yo'nalishi

I bosqich talabasi

Yadgarova D.

Tekshirdi: Qodirova X.R.

TOSHKENT - 2014

1. *Kirish*

2. *Asosiy qisim*

A) Intervallar

B) Diatonik intervallar

C) Xromatik intervallar. Intervallar engarmonizmi

D) Intervallarning aylanishi

E) Tabiiy major va minor intervallari

F) Xarakterli intervallar

G) Intervallarning yechilishi

3. *Xulosa*

4. *Adabiyotlar ro'yhati*

Kirish.

Mazkur qoida va an'analar xalq (*Klassik musiqada*) hamda mumtoz asrlar davomida vujudga kelgan tajribasi natijasida vujudga kelgan. Har qanday musiqani cholg'u sozida ijro etish yoki kuylash uchun musiqaning elementar nazariyasini bilish muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun, mazkur fanni o'qitish dastlab musiqa asarlarini ijro etish va ulardagi mavjud tovush va intervalar munosabatlari borasidagi bilimlarni o'zlashtirishni qamrab oladi. Har qanday shakl va mazmundagi musiqa rang-barang tarkibiy qismlardan tashqari topadi va musiqa nazariyasi – musiqaning elementar nazariyasi, garmoniya, musiqa asarlari tahlili, polifoniya va cholg'ushunoslik singari bir necha tarmoqlarga ajraladi. Musiqa asarlarida shakl va mazmun bir-birini to'ldiruvchi unsurlar sifatida muhim ahamiyatga ega.

INTERVALLAR

Interval. Pog'onalar va tonlar miqdori


*Interval*¹ ikki tovushning balandlik bo'yicha uyg'unlashuvidir.

Interval tovushlari birin-ketin chalinsa *melodik interval*, bir vaqtning o'zida chalinsa *garmonik interval*ni hosil qiladi. Intervalning pastki tovushi uning *asosi*, yuqorigi tovushi esa *cho'qqisi* deyiladi.

Intervallar pastdan yuqoriga qarab o'qiladi, faqat pasayuvchi melodik interval uning yo'nalishi aytilib, pastga qarab o'qiladi.

Interval pog'onalar miqdori va tonlar miqdori bilan o'lchanadi. *Pog'onalar miqdori*, ya'ni *miqdoriy kattaligi*, interval hajmidan darak berib, u qamrab olgan pog'onalar sonini raqam bilan ko'rsatadi hamda interval o'ziga uning pog'onalar soniga muvofiq lotincha nom beradi. *Tonlar miqdori*, ya'ni *sifat kattaligi*, intervalning asosidan cho'qqisigacha ton va yarim tonlikar yig'indisini aytadi.

44



Intervallar o'zining hajmi (zich-kengligi) bo'yicha ikkita guruhga ajraladi:

- 1) oktava chegarasida hosil bo'lgan *oddiy intervallar*.
- 2) oktavadan keng bo'lgan *tarkibli intervallar*.

Oddiy intervallar quyidagicha nomlanadi:

Prima yoki unison² – 1 – bitta pog'ona;

Sekunda – 2 – ikkita pog'ona;

Tertsiya – 3 – uchta pog'ona;

Kvarta – 4 – to'rtta pog'ona;

Kvinta – 5 – beshta pog'ona;

Seksta – 6 – oltita pog'ona;

¹ Interval - (lotincha *intervallum*) - oraliq.

² Unison - (italiyancha *unisono*; *unus* - bitta, *sonus* - tovush) - ikkita ovozning bitta tovushda qo'shilishi.

Septima – 7 – etti ta pog‘ona;

Oktava – 8 – sakkizta pog‘ona.

Tarkibli intervallar:

Non – 9 – to‘qqizta pog‘ona, oktava oralab sekunda

Datsima – 10 – o‘nta pog‘ona, oktava oralab tertsiya

Dudatsima – 11 – o‘n bitta pog‘ona ---//--- kvarta

Dudatsima – 12 – o‘n ikkita pog‘ona --// kvinta

Terdatsima – 13 – o‘n uchta pog‘ona --//-- seksta

Kvudatsima – 14 – o‘n to‘rta pog‘ona -/- septima

Kvudatsima – 15 – o‘n beshta pog‘ona -/- oktava

Ayrim hollarda pog‘onalar miqdori bir xil bo‘lgan intervallning tonlar miqdori har xil chiqadi. Interval sifatini aniqroq atash uchun qo‘shimcha atamalar qo‘llaniladi. Bular: *sof* (s. bilan belgilanadi), *katta* (*kat.*), *kichik* (*kich.*), *orttirilgan* (*ort.4*), *kamtirilgan* (*kam.5*) kabi yordamchi so‘zlar.



Diatonik intervallar

Diatonik lad pog‘onalari o‘rasida hosil bo‘lgan intervallar **diatonik intervallar** deyiladi. Diatonik intervallar o‘z ichida ikkita guruh – *asosiy* va *xarakterli* intervallarga ajraladi. *Asosiy* intervallar major va minorning tabiiy o‘rtacha pog‘onalarida, *xarakterli* intervallar esa major va minorning garmonik o‘rtacha pog‘onalarida tuziladi. (xarakterli intervallar haqida inchi mavzuda qaytalanadi).

Tabiiy asosiy (14 ta) intervallarning tonlar miqdori ko‘payishi bo‘yicha



ketma-ket joylashuvi quyidagi jadvalda ko'rsatilgan.

Asosiy intervallarni musiqaviy tovushqatorning asosiy yoki hosila pog'onasidan yuqoriga yoki pastga tuzish mumkin.

Xromatik intervallar. Intervallar engarmonizmi.

Xromatik interval orttirilgan va kamaytirilgan intervallarga deyiladi (bular qatoriga uchtonliklar – ort.4 va kam.5, hamda xarakterli – ort.2, kam.7, ort.5, kam.4 intervallar kirmaydi).

$-0.5 t - +0.5 t -$ kam. $\longleftrightarrow$ Sof $\longleftrightarrow$ ort.
--


Sof intervallar yarim tonga kengayishi natijasida orttirilgan, yarim tonga qisqarishi natijasida kamaytirilgan interval hosil bo'ladi.

Kichik intervalning yarim tonga qisqarishi natijasida kamaytirilgan, katta intervalning yarim tonga kengayishi natijasida orttirilgan interval tuziladi.

$-0.5 t - +0.5 t - +0.5 t$ kam. $\longleftrightarrow$ kich. $\longleftrightarrow$ kat. $\longleftrightarrow$ ort.
--

Agar katta interval butun tonga qisqaradigan bo'lsa, kamaytirilgan interval hosil bo'ladi, va aksincha kichik interval butun tonga kengaysa, orttirilgan interval hosil bo'ladi.

Xromatik interval tonlar miqdori bo'yicha albatta birorta asosiy intervalga teng keladi. *Tonlar miqdori bir xil bo'lgan intervallarning eshitilishi ham bir xil*



Bunday intervallarga *engarmonik teng intervallar deyiladi*. Engarmonik teng intervallarning pog'onalar miqdori esa bir xil yoki har xil bo'lishi mumkin.

Konsonans va dissonans intervallari

Diatonik intervallar o'zining *garmonik yangrashi* sifati bo'yicha *konsonans*³ (ohangdosh) va *dissonans*⁴ (noohangdosh) intervallarga ajraladi.

Musika nazariyasida *dissonans* bo'lib *sekunda, septima va uchtonliklar* (ort.4, kam.5) hisoblanadi. (bularga muvofiq tarkibli intervallar ham nazarda tutiladi). *Keskin dissonanslar* deb kichik sekunda (kich.2q0.5t), katta septima (kat.7q4.5t) va uchtonliklar (ort.4, kam.5) nazarda tutiladi.


Yumshoq dissonanslar – katta sekunda (kat.2q1t), kichik septima (kich.7q5t.)

Konsonanslarga qolganlari - *prima, oktava, kvarta, kvinta, tertsiya, seksta* lar mansub. *Qattik konsonanslar* – *sof intervallar*: prima bilan oktava – nihoyat mukammal konsonanslar, hamda kvarta bilan kvinta – mukammal konsonanslar deb hisoblanadi. *Yumshoq konsonanslar* – tertsiya va seksta.

Интервалларнинг айланиши

Intervalning aylanishi – bu uning asosi bilan cho'qqisi joylarini almashtirish maqsadida pastki tovushini yuqoriga, yuqorigisini pastka bir yoki bir necha oktavaga ko'chirishdir (ikkala harakat bir vaqtda bajarilishi ham mumkin). Natijada dastlabki *intervalning aylanmasi* deb aytiladigan yangi interval hosil bo'ladi.

48



Oddiy intervallar aylanishi quyidagi qonuniyatlarga bo'ysunadi:

- 1) oddiy interval bilan aylanmasining umumiy hajmi oktavaga teng;
- 2) ikkala intervalning tonlar miqdori yig'indisi otkvaning 6 toniga barobar:

$$2.5 \text{ ton} - 3.5 \text{ ton} = 6 \text{ ton}; \quad 6 \text{ ton} - 4.5 \text{ ton} = 1.5 \text{ ton};$$

³ *Consonans* – (lotincha *consonantia*) – uyg'un sado.
⁴ *Dissonans* – (lotincha *dissonantia*) – uyg'unsiz sado.

3) ikkala intervalning pog'onalar miqdori yig'indisi 9 ga barobar;


prima 1 + 8 *oktava* = 9; *sekunda* 2 + 7 *septima* = 9

tersiya 3 + 6 *seksta* = 9; *kvarta* 4 + 5 *kvinta* = 9

4) sof interval sof intervalga aylanadi, katta interval kichikka, kichik –kattaga,

49

Sof.	↔	sof.
kich.	↔	kat.
Kam.	↔	ort.



orttirilgan – kamaytirilganga, kamaytirilgan orttirilganga.

TABIY MAJOR VA MINOR INTERVALLARI

Tabiiy major va minor intervallari.

Tabiiy major va tabiiy minor pog'onalarida faqat diatonik intervallar, ya'ni sof, katta, kichik va uchtonliklar (ort.4, kam.5) hosil bo'ladi. Yettita pog'onaning har birida oddiy intervallarni tuzish mumkin. Biroq, har xil pog'onalardan tuzilgan bir turdagi interval (masalan, tertsiya)larning sifati (katta, kichik) turlicha bo'ladi.

Tabiiy majorda sof prima bilan sof oktava barcha pog'onalarda tuziladi.

Sekundalar – 2 ta kichik – III- va VII- pog'onalarda tuziladi,

5 ta katta – qolgan pog'onalarda tuziladi .

Tertsiyalar – 3 ta katta – I-, IV-, V- ladning asosiy pog'onalarida,

4 ta kichik – qolgan pog'onalarda tuziladi.

Kvartalar – 1 ta orttirilgan – IV- pog'onada,

6 ta sof – qolgan pog'onalarda tuziladi.

Kvintalar – 1 ta kamaytirilgan – VII- pog'onada,

6 ta sof - qolgan pog'onalarda tuziladi.

Sekstalar – 3 ta kichik – III-, VI-, VII- pog'onalarda,

4 ta kata – qolgan pog'onalarda tuziladi.

Septimalar – 2 ta katta – I-, IV- pog'onada,


























5 ta kichik – qolgan pog'onalarida tuziladi.

Ushbu intervallarning pog'onalar bo'yicha taqsimoti (intervallar nomi raqam bilan ifodalangan):

72

Major		Intervallar sifati				
pog'ona	katta	kichik	sof	orttirilgan	kamaytirilgan	
I	2, 3, 6, 7	-	4, 5			
II	2, 6	3, 7	4, 5			
III	-	2, 3, 6, 7	4, 5			
IV	2, 3, 6, 7	-	5	4		
V	2, 3, 6	7	4, 5			
VI	2	3, 6, 7	4, 5			

72a

pog'onalar	sekunda	tersiya	kvarta	kvinta	seksta	septina
I						
II						
III						
IV						
V						
VI						
VII						
VII	-	2, 3, 6, 7	4		5	

Tabiiy minorda mazkur intervallar ikki pog'ona yuqoriroq joylashadi. Masalan, orttirilgan kvarta majorning IV- pog'onasida joylashgan, minorda esa u VI- pog'onada tuziladi.

Tabiiy minorda sof prima bilan *sof oktava* barcha pog'onalarda tuziladi.

Sekundalar – **2 ta kichik** – V- va II- pog'onalarda tuziladi,

5 ta katta – qolgan pog'onalarida tuziladi .

Tertsiyalar – **3 ta katta** – III-, VI-, VII- ladning asosiy pog'onalarida,

4 ta kichik – qolgan pog'onalarda tuziladi.

Kvartalar – **1 ta orttirilgan** –VI- pog'onada,

6 ta sof – qolgan pog'onalarda tuziladi.

Kvintalar – **1 ta kamaytirilgan** –II- pog'onada,

6 ta sof - qolgan pog'onalarda tuziladi.

Sekstalar – **3 ta kichik** – V-, I-, II- pog'onalarda,

4 ta kata – qolgan pog'onalarda tuziladi.

Septimalar – **2 ta katta** – III-, VI- pog'onada,

5 ta kichik – qolgan pog'onalarida tuziladi.

Ushbu intervallarning pog'onalar bo'yicha taqsimoti (intervallar nomi raqam bilan ifodalangan):

Minor		Intervallar sifati			
Pog'ona	<i>katta</i>	<i>kichik</i>	<i>sof</i>	<i>orttirilgan</i>	<i>kamaytirilgan</i>
I	2	3, 6, 7	4, 5		
II		2, 3, 6, 7	4		5
III	2, 3, 6, 7	-	4, 5		
IV	2, 6,	3, 7	4, 5		
V	-	2, 3, 6, 7	4, 5		

VI	2, 3, 6, 7		5	4	
VII	2, 3, 6,	7	4, 5		

73a

	pog'onalar	sekunda	tersiya	kvarta	kvinta	seksta	septima	tabiiy major pog'onalar
I		kat	kich	sof	sof	kich	kich	VI
II		kich	kich	sof	kam	kich	kich	VII
III		kat	kat	sof	sof	kat	kat	I
IV		kat	kich	sof	sof	kat	kich	II
V		kich	kich	sof	sof	kich	kich	III
VI		kat	kat	ort	sof	kat	kat	IV
VII		kat	kat	sof	sof	kat	kich	V

XARAKTERLI INTERVALLAR

Xarakterli intervallarning tuzilishi.

Garmonik major va garmonik minor pog'onalarida hosil bo'ladigan intervallar ham diatonik intervallardir. Ladlarning ushbu turida alteratsiyalangan pog'onalar bilan bog'liq intervallar sifati bir oz o'zgaradi. Alteratsiyalangan pog'ona intervalning asosi yoki cho'qqisi bo'lib xizmat qiladi.

Garmonik majorda yarim tonga pasaytirilgan VI- pog'onadan tuzilgan intervallar qatorida (asosiy intervallardan tashqari) 2 ta yangisi paydo bo'ldi – *orttirilgan sekunda* va *orttirilgan kvinta (ort.2, ort.5)*.

Pasaytirilgan VI- pog'ona interval cho'qqisi sifatida olinganda yana 2 ta yangi interval – *orttirilgan intervallarning aylanmalari* hosil bo'ladi – *kamaytirilgan kvarta, kamaytirilgan septima (kam.4, kam.7)*.

Garmonik minorda yarim tonga ko'tarilgan VII- pog'onadan tuzilgan intervallar qatorida ham 2 ta yangi interval tashkil topadi – *kamaytirilgan kvarta* va *kamaytirilgan septima* (kam 4, kav7).

Ko'tarilgan VII- pog'ona interval cho'qqisi sifatida olinganda kamaytirilgan intervallarning aylanmalari hosil bo'ladi – *orttirilgan sekunda* va *orttirilgan kvinta* (ort.2, ort.5).

Mazkur to'rtta intervalni *xarakterli intervallar* deb aytadi.

Garmonik minor va garmonik major pog'onalarida tuzilgan intervallar

74

	(c-moll)	(C-dur)
I		
II		
III		
IV		
V		
VI		
VII		

Diagram illustrating the construction of intervals in C minor and C major scales. The left column shows the C minor scale (c-moll) and the right column shows the C major scale (C-dur). The intervals are labeled as follows: I, II, III, IV, V, VI, VII. The intervals are labeled as 'ort' (orttirilgan) and 'kam' (kamaytirilgan) in the original image.

taqqoslama jadvali:

Garmonik major va minorda *uchtonliklarning* yana bittadan juftligi paydo bo'ladi. Endi orttirilgan kvarta (ort.4) IV- va VI- pog'onalarda, kamaytirilgan kvinta (kam.5) VII- va II- pog'onalarda tuziladigan bo'ldi.

Orttirilgan sekunda (ort.2) garmonik majorda ham, garmonik minorda ham VI- bilan VII-pog'onalar orasida, uning aylanmasi *kamaytirilgan septima* (kam.7) VII- bibila VI- pog'onalar orasida tuziladi.

Orttirilgan kvinta (ort.5) va uning aylanmasi *kamaytirilgan kvarta* (kam.4) garmonik major va garmonik minorning III- pog'onasi bilan alteratsiyalangan pog'ona orasida tuziladi:

majorda – III- pog‘ona va pasaytirilgan VI- pog‘ona,
minorda – III- va ko‘tirilgan VII- pogona oralig‘i.

75



Intervallarning yechilishi.

Lad pog‘onalari turg‘un va noturg‘un pog‘onalarga ajraladi. Intervallar ham turg‘un va noturg‘un bo‘ladi. Intervalning turg‘un yoki noturg‘unligi uning lad xususiyatini aniqlaydi.

Turg‘un intervalning tovushlari ladning turg‘un pog‘onalaridir. Yangrashi bo‘yicha ular faqat konsonans ohangini vujudga keltiradi.

Noturg‘un intervalning bitta yoki ikkala tovushi ladning noturg‘un pog‘onasiga joylashadi. Noturgun interval yangrashi bo‘yicha ham konsonans, ham dissonans bo‘lishi mumkin. Masalan: *re-minorda* interval *mi – lya* - sof kvarta, eshitilishi bo‘yicha – konsonans, lad xususiyati bo‘yicha – noturg‘un interval, negaki *mi* tovush II- noturg‘un pog‘onadir. Dissonans intervallarga sekunda, septima, uchtonliklar va xromatik intervallar kiradi. Ba‘zi orttirilgan va kamaytirilgan intervallar o‘zining akustik yangrashi bilan konsonansdek eshitiladi. Ammo lad jihatidan ularga dissonans intervali tarzida qaraladi.

Lad pog‘onalariga o‘xshab noturg‘un intervallar ham turg‘unlarga intiladi.

Noturg‘un intervalning yechilishi – uning turg‘un intervalga o‘tishidir.

Dissonans intervalning yechilishi deb uning konsonansga o‘tishiga aytiladi.

Intervalning **yechilish jarayonida** noturg‘un pog‘ona o‘z tortilishi bo‘yicha qo‘shni turg‘un pog‘onaga o‘tadi, turg‘uni esa o‘z joyida qoladi.

Shunga ko‘ra, biror intervalni to‘g‘ri yechish uchun dastavval lad (major yoki minor) tanlanadi. So‘ng, mazkur interval ladning qaysi pog‘onalarida tuzilishi

mumkinligi aniqlanadi. O'sha pog'onalaridan biri intervalning asosi bo'ladi. cho'qqi pog'onasi esa hisoblab chiqiladi. Pog'onalar turg'un-noturg'unligi bilindandan keyin intervalning yechilishi amalga oshiriladi va turg'un pog'onalar bo'yicha uning tonalligi topiladi.

Orttirilgan intervallar yechilganda o'zidan keng intervalga (o'zidan *tashqariga* – pastki tovush pastga, yuqorigisi yuqoriga) o'tadi. **Kamaytirilgan intervallar** esa o'zidan tor intervalga (*ichkariga* – pastki tovush yuqoriga, yuqorigisi - pastga) o'tadi.

Xarakterli intervallarning yechilishi: orttirilgan sekunda har doim sof kvartaga, kamaytirilgan septima – sof kvintaga, orttirilgan kvinta – katta sekstaga, kamaytirilgan kvarta – kichik tertsiyaga yechiladi.

76

C-dur gammalik

ort.2 sof.4 kam.7 sof.5 ort.5 kat.6 kam.4 kich.3
VI VII VI III

C-moll gammalik

ort.2 sof.4 kam.7 sof.5 kam.4 kich.3 ort.5 kat.6
VI VII VII III

Xulosa.

Intervall va uning aylanmalari to'liq bo'lmagan tonika uchtovushligi. Intervall - ladning V- pog'onasida tuzilgan to'rt tovushli akkorddir. Tersiya bo'yicha joylashgan ushbu akkordning tuzilishi major va garmonik minorlarda bir xil. Intervall aylanmalari davriyaning rivojlanishida katta rol o'ynaydi. Intervall aylanmalarining qo'llanilishi bas ovozi yo'nalishida xarakterizalanishini ta'minlaydi. Akkordning bas tovushi bo'yicha Dning aylanmalari ajratiladi. Agar bas ovozida tersiya joylashgan bo'lsa, bunday akkord kvintseptima deb ataladi. Bas ovozida kvinta tovushi joylashganda bu akkord ters kvintseptima deb ataladi. Agar bas ovozida septima tovushi joylashgan bo'lsa, akkord kvintseptima deb ataladi. Aylanmalarning nomlanishi bas bilan septima bas bilan ushbu to'rtlik asosidagi intervallardan kelib chiqadi. Dominantkvintseptima atalishining belgilanishi - D⁺. Bas ovozida VII pog'ona bo'lib, akkord prima, ikkinchi, septima bny holatida bo'lishi mumkin.

ADABIYOT

1. *Azimova O.N.* Garmoniya. Nazariy kurs. T., 2000.
2. *Akbarov I.A.* Musiqa lug'ati. Maxsus muharrir T.B.G'ofurbekov. 2- nashri. T., 1997.
3. *Alekseev B.* Zadachi po garmonii. M., 1982.
4. *Faxromeev U.A.* Musiqaning elementar nazariyasi. T., 1983.
5. *Dubovskiy I. Evseev S. Spets. b'n I. Sokolov* «Garmoniya darsligi». T., 1987 Kurs teorii muziki. Muharrir A.L.Ostrovskiy. L., 1978.
6. *Zelinskij V.* Kurs garmonii i zadachax. M., 1971.
7. *Krasninskaya L. Ushakov V.* Elementarnaya teoriya muziki. M., 1983.
8. *Motylevskiy B.* Melodii i ipa garmonizatsii. L., 1982.
9. Muzikalniy ensiklopedicheskiy slovar. Bosh muharrir *G.A.Keldish*. M., 1990.
10. *Muller A.* Sbornik zadach po garmonii. M., 1986.
11. *Miyasov V.A.* Uchebnik garmonii. M., 1980.
12. Osnovi teoreticheskogo muzikoznaniya. Muharrir *M.I.Roytershteyn*. M., 2003.
13. *Ostrovskiy L. I.* Metodika teorii muziki i solfedjio. L., 1970.
14. *Parsagova A.P.* Muzikalnaya forma. T., 2007.
15. *Raximov Q.* Musiqaning elementar nazariyasi. Ma'lumotnoma. T., 2007.
16. *Skrebneva O. Serebreny S.* Xrestomatiya po garmonicheskomu analizu. M., 1978.
17. *Spasochkin I.V.* Elementarnaya teoriya muziki. M., 1985.
18. *Spasochkin I.V.* Musiqa shakili. T., 1985.
19. *Tyulin Y. M.* Uchebnik garmonii. M., 1988.